

QO‘QON ADABIY MUHITIDA MUVASHSHAH BITISH AN‘ANASI

Orasta Tulkin qizi TEMIROVA

Bosh mutaxassis

Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi

Samarqand, O‘zbekiston

@orastatemirova56@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada muvashshahning lug‘aviy manosi va uning Qo‘qon adabiy muhitida yangidan rivojlanganligi, shoirning nazmiy salohiyatini ochib berganligi, adabiy kechalarning asosiy she‘rlariga aylanganli Furqat, Muhyi va Qori Ho‘qandiy ijodi misollarida tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: Furqat, Muhyi va Qori Ho‘qandiy, muvashshah, “Tashvih san‘ati”, “G‘iyos ul-lug‘at”.

ТРАДИЦИЯ СОЗДАНИЯ МУВАШШАХ В ЛИТЕРАТУРНОЙ СРЕДЕ КОКАНДА

Ораста Тулкин кизи ТЕМИРОВА

Главный специалист

Центр педагогического мастерства Самаркандской области

Самарканд, Узбекистан

@orastatemirova56@gmail.com

Аннотация

В данной статье на примере творчества Фурката, Мухий и Кори Хоканди раскрывается словарное значение жанра мувашшах, превратившегося в основной вид стихотворного жанра в литературной среде Коканда, а также поэтический потенциал поэтов,

Ключевые слова: Фуркат, Мухий ва Кори Хоканди, Мувашшах, искусство «Ташвих», «Гиёс ул-лугат».

An‘naviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan biridir. Chunki adabiyot taraqqiyotining o‘zak nuqtalaridan birini an‘analar tashkil etadi. Bu hol mumtoz adabiyotda, ayniqsa, ravshan ko‘zga tashlanadi. .Buni ko‘plab janrlar va naziralarda ham ko‘rishimiz mumkin. Aynan shunday an‘analardan biri muvashshah bitish. Butun Sharq mumtoz adabiyotida, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida, ayniqsa, XIX asrda muvashshahchilik keng rivojlandi. Qator shoirlar qalamida dunyoviy-insoniy maqsadlarni anglatish uchun qo‘llanildi. Munis, Uvaysiy, Shavqiy, Muqumiy, Ogahiy, Zavqiy, Furqat va Xilvatiy kabi shoirlarning hayoti, yaqin kishilari va muhiti haqida ma‘lumot beruchi muvashshahlar ham mavjud [1;335] XIX asr Qo‘qon adabiy muhitining eng katta va jo‘shqin adabiy

jarayon sifatida shakllandi hamda faoliyat ko'rsatdi. Undagi rang-barang ijodiy faoliyat jarayonining markazida muvashshahlar turdi desak mubolag'a bo'lmaydi chunki XIX asrning 2-yarmiga kelib muvashshah bitish an'anasi yanada keng tus oldi. Buni atoqli shoir M.Shayxzodaning ta'kidlari ham isbotlaydi "Lirikada muvashshah janri o'zbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning 2-yarmida ko'p avj olib ketdi. U adabiyot ahli o'rtasida keng rasm bo'lib qolgan edi. Hatto shu darajadagi. shoirlar va nazmchilik hunari muvashshahchilik mahorati bilan ham o'lchanadigan bo'lib qoldi" [4;70]. Muvashshah XVIII–XIX asrda Qo'qon adabiy muhitida keng rivojlangan. "Muvashshah – arabcha bezatilgan, ziynat berilgan" degani. O'rta asrlarda Sharq she'riyatidagi poetik shakl, she'r usullaridan biri. Bunday she'rlarning har bir misrasi yoki bayt boshlangan harflar yigindisidan biror insonning ismi, laqabi, taxallusi yoki muayyan so'zlar kelib chiqadi [1;327]. Muvashshah haqida ma'lumot lug'atlarda va asarlarda she'riy shakl sifatida so'z yuritiladi bunga misol qilib Muhammad G'iyosiddinning "G'iyos ul-lug'at" kitobida shunday deyilgan "Muvashshah istelohda badiiy san'at nomidirki agar she'rda har misra yoki har bayt boshidin bir harf olinib jam qilinsa shaxs yoki misra hosil bo'ladi" Hozirgi zamon arab adabiyotshunosi ham Xannaal Faxuriy ham "Muvashshah so'zi ko'chma ma'noda bezatmoq she'rda kishi nomini ziynatlamoqni bildiradi"- deydi. Muvashshah bitish qadimiy an'analardan biri bo'lib, bu she'rning eng ko'p tarqalgan usuli g'azal-muvashshahlardir.

Muvashshah lirikaning o'ziga xos shakllaridan bir sanalib, u adabiyotshunoslikda "Tashvih san'ati" deb ham yuritilgan. Bu haqda Atoulloh Husayniy o'zining "Badoye us-sanoye" asarida shunday ma'lumot beradi "Tashvih ajam shuarosi nazmida andin iboratki, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o'rtasida bir necha harf yoki bir necha so'z keltirurukim, ul harf yoki so'zlarni jam qilursa bir ism yo bir laqab, yo bir misra yo bir bayt bo'lur va bu san'atni o'z ichiga olgan she'rni muvashshah derlar" [3;84-85]. XVIII asrgacha yaratilgan muvashshah she'rlarda muammo san'ati usulidagi muarakkabliklar hamda tilsim etilgan ism, narsa yohud fikrlarni topishda abjad usuli keng qo'llanilgan. Abjad usuli va arab alifbosi qoidalariga ko'ra qisqa unlilar yozuvda

alohida harf sifatida ifodalanmaydi va yashiringan soʻz yoki ismni faqatgina undosh harflari berkitiladi. Soʻzimizni isboti tariqasida Poʻlatjon Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiy” risolasida keltirilgan Qurbon taxallusida ijod qilgan asli Hoʻqnadlik boʻlgan shoirning bir muvashshahni koʻrib oʻtamiz.

Qomating gul dur aning davrida rayhon kokiling

Qildi oshufta dimogʻimni parishon kokiling

Mardumi chashming otib mujgon oʻqing jismim aro

Jon qushigʻa dom boʻlmishdur yozulgʻon kokuling

Ravshan aylardi gʻamim shomini roʻying mashʻali

Tiyralik soldi anga har dam shabiston kokiling

Yoy oʻlib qoshing qadalmishdur, anga mujgonlaring

Tor oʻlib har dam otar koʻksunga paykon kokiling

Hayli odamdin desam oʻxshar malakka surating

Ul malak haylida ham yoʻqdur zarafshon kokuling

Intihosizdur musalsal orazing atrofida

Muncha ham durdi daroz oʻlish farovon kokiling

Nomi poking harfi boʻlmish har baytning boshigʻa toj

Ushlamoqqa orzumand boʻldi qurbob kokiling [2;527].

Mazkur gʻazalning har baytining toq misralaridan *Qumrixon* ismi kelib chiqadi. Muvashshah kimga bagʻishlangan boʻlsa, oʻsha gʻazalda tarif etilgan obraz ham aynan mazkur kishining oʻzidir deb oʻylash xato. Muvashshahdagi ism bu gʻazalning kimga bagʻishlanganligidan daʼlolat beradi.. Asarda tasvirlangan yor esa butunlay boshqa bir kishi ham boʻlishi mumkin [4;70].

Muvashshah usulida sheʼr yaratish ayniqsa, XIX asr Qoʻqon adabiy maktabida sezilarli tarzda kuchaydi. Hatto Muqumiy, Furqat, Zavqiy kabi

davrining ilg'or shoirlari o'zlarining salmoqli g'azallarini muvashshah tarzida yozdilar. Shu davrda yashab ijod etgan boshqa ijodkorlar ham muvashshahlar yartganlar [1;325]. Bular quydagilar, Vola, Shavqiy Namangoniy, Xilvatiy, Qoriy kabi ijodkorlardir. Aytish joiz bo'lsa, Qoriy Ho'qandiyning ijodida ham muvashshahlar juda ko'p. Shoirning devonida 27 ta muvashshah g'azallari bor. Qoriy Ho'qandiy Furqatdan yosh hamda ijodiy mahorat jihatidan ham ulug' ekanligini va Furqat ham Qoriyni o'ziga ustoz deb bilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Qoriyning "Ko'zlaring" radifli g'azal-muvashshahiga hamohang tarzida Furqat ham xuddi shu tarzida muvashshah bitgan va bu ikki muvashshahdan birida "*Nazira*" nomi yashiringan bo'lsa, boshqasida "*Mahkamxon*" ismlari uchraydi.

Nogahon bo'ldi namoyon shavhi shahlo ko'zlaring

Olam ahlini boshiga soldi g'avg'o ko'zlaring

Zarralar sargashtai xok dargohingdur oftob

Ravnaq husningni elga qildi insho ko'zlaring

Yozma daftar Vomiq Farhodu Majnun qissasin

Oshiqi sarmastlarni qildi shaydo ko'zlaring

Rangi ruxsoring gulra'no ochilg'on bog'u aro

Toza-toza dog'larni qildi afsho ko'zlaring

Oy kabi yetti kamola ko'rmasun hargiz zavol

Ikki naxjir xato sayr etti sahro ko'zlaring

Navnihol bog'i jannatsan va yo rizvon guli

Nayminga haydi qilib Qorini rasvo ko'zlaring [6;76]

Ushbu muvashshahdan *Nazira* ismi berkitilganligini ko'rishimiz mumkin. Furqatning ham "Ko'zlaring" radifini saqlagan holda bitgan muvashshahini ham keltirdik

Muncha zolim bo‘lmish ul xunrezi tarso ko‘zlaring
Kim, solur islom elig‘a oncha yag‘mo ko‘zlaring,
Halqayi zulfing ko‘ngullarni sarosar band etib,
Qatlima tortar qoshingdin tig‘i burro ko‘zlaring
Ketkil ul yon deb ishorat qilsa har gah qoshlaring
Kel, beri deb aylashur oxista iymo ko‘zlaring
Maydin ermas ul kishi, jono siyah mast o‘lmog‘i,
Ko‘rdi bir g‘amza harifi nash‘a paymo ko‘zlaring.
Xirqai zuhdumni husning panjasidin chok etib,
Ofiyat ahli qoshida qildi rasvo ko‘zlaring.
Aylaganda nastaring ko‘zgusini hayron yuzing,
Intizor etmas nechuk nargisni shahlo ko‘zlaring?
Ne uchun dashtu biyobonlarni tinmasdin kezar
Qilmag‘an bo‘lsa agar ohun shaydo ko‘zlaring?
Qildi Furqatni xarobu xastau zoru zabun,
Xolu xatting, qaddu ruxsoring, na tanho ko‘zlaring [5;50].

Bu davrda yaratilgan muvashshahlar erkak kishilarning ismiga yozilgan. Sharqona odob-axloq taqazosiga ko‘ra, o‘sha davrda ijod qilgan shoirlar ayolarning ismiga muvashshah bitishdan o‘zlarini tiyganlar. Ammo uning timsoli tamomila boshqacha, ularda ayolarga xos go‘zallik va latofat madh etilganini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham g‘azal muvashshahlarga agar e’tibor berilib sinchiklab mushohada qilinmasa, uning muvashshah ekanligi sezilmay qolaveradi. Jumladan, Qoriyning “Karimxon” ismiga bitilgan quydagi muvashshah-g‘azali shunday xarakterga ega:

Ko‘nglimni ochti gul kabi husn latofat

Aqlimni vola ayladi zebo malohat.

Qoriy muvashshahlarida kisi ismlarini bayt matniga shu qadar nozik singdirilganki, ularni muvashshah ekanligini aniqlash hamma vaqt ham oson kechavermaydi. Bunga misol tariqasida quydagi baytni keltirishimiz mumkin.

Ey bulbul guluston xush nolayi fig‘on qil,

Jon bog‘ig‘a navodin bir naqshi doston qil.

Nomi nishoning istab b o‘ldi asir Qoriy,

Andak xirom birla ko‘nglini shodmon qil.

Yuqorida matla va maqtsi keltirilgan muvashshahda “Inomjon” ismi yashiringandir.

Ahamiyatli tomoni shundaki, Qoriyning muvashshahlari ham uning g‘azallari, muhammaslari kabi yuksak badiylikka, go‘zallikka ega asarlardir. Ularda go‘zal tashbehlarni, badiiy tasvir vositalarini xalqona iboralarni uchratish mumkin.

Ey pari ruxsor vaslingga giriftor o‘lmasin,

Men kabi bir ko‘rgali ushshoqlar zor o‘lmasin

Goh *laylivash*, goh *shirinzabon* shakkari shikan.

San kabi bir sho‘xivas, lali shakarbon o‘lmasin.

Ushbu muvashshahda “Akramxon” ismi yashiringan bo‘lib, unda bir necha badiy san’atlar birgalikda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ikkinchi va to‘rtinchi misrada tashbeh san’ati qo‘llanilgan bo‘lsa, uchinchi misradagi kursiv so‘zlarda iyhom ma’naviy san’atini hosil qilgan. So‘ngi misrada esa shoir yorning labini la’l deb atagan bu – ochiq istioradir.

Noz ila bo‘ldi xiromon sarvu raftorim mani,

Kulbam vayron bo‘lub go‘yo gulistonim mani.

Noz-istig‘no rammuzi *toza* aylar ishqni,

Dil *musaffo* aylagay Qoriy bu afg'onim mani.

“Nu'monxon” ismiga bitilgan yuqoridagi muvshshvx-g'azalda ham badiiy san'at namunalaridan unumli foydalanilganini kuzatish mumkin. Masalan, birinchi misradagi *noz*, *xiromon* so'zlari o'zaro aloqador bo'lib tanosib san'atini yuzaga keltirgan. Ikkinchi misrada *vayron*, *guliston* so'zlari vositasida tazod san'atini qo'llagan. Gulistonning vayron bo'lgan kulbaga o'xshatilishi orqali esa tashbeh san'ati hosil bo'lgan. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar vositasida yana bir tanosib san'ati yuzaga kelgan. Qoriy Xo'qandiyning g'azal janrida bitgan muvashshahlari ismni yashirish talabiga ko'ra shakl namunasiga aylanib qolmagan, balki shoir ulardan tanlangan mavzuning badiiy ifodasini berishga erishgan. XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan muvashshahlarda ayollar ismi ham paydo bo'la boshladi. Masalan, Muqimiyning “*Adolxon*”, Furqatning “*Maharxon*”, Haziniyning “*Oyshaxon*” kabi ayollar ismiga yozgan muvashshahlarini uchratish mumkin. Qoriyning quyidagi muvashshahi ham shunday xususiyatga ega:

Meni mohu aylagan aqlim olib bir sho'xi ayyora,

Solib zanjir ishqin bo'ynima band etdi bir tora,

Muborakxon ehsonidin umid uzmagil, Qoriy,

Muhammad Mustafo ummatlarig'a bo'ldi g'amxora,

misrali muvashshahida “*Muborakxonim*” ismi yashiringanligini ko'rish mumkin.

Davrlar va zamonlar o'zgarishi natijasida har sohada o'zgarishlar bo'lgani kabi adabiyotda ham buni yaqol ko'rish mumkin. Bunga misol tariqasida muvashshlarda endi ayollarni ham ismini uchrata boshladik. Muvashshah istelohda badiiy san'at ekanligini “*G'iyos ul lug'at*” da ham ko'rib o'tgandik. o'sha davrda yaratilgan ayrim muvashshahlarda berkitilgan ismlar ayollar ismi emas, balki odatda, erkaklar ismiga muvashshah bitishgan. Bunga sabab Islom diniy qoidalari ham bo'lishi mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan muvashshahlarda esa asta-sekinlik bilan ayollarning ismini ham uchrata boshladik. Muvashshah bitish aynan shu davrda ancha keng tarqalgani va hatto nazmdagi

shoir mahoratini ham shu bilan belgilanishiga balki mushoira kechalarini o'tkazilganligi ham sabab bo'lgandir Bu haqida Furqatning esdaliklarida ham keltirilgan "Ho'qand viloyatidag'i fozili rasotabe kishilar bilan birga ittihad aylab, alarning suhabatidin ko'p bahralar topdim va asr shuarolarikim, Mavloni Muhiy, Mavloni Muqumiy, Mavloni Zavqiy, Mavloni Nisbatdurlar hamisha majlisi bunyod aylab, zodai tabilarimizdin mushaira qilur erduk. Va bir g'azaldan tatabbu' ko'rguzib bir mazmun har nav ifoda topar erdi. Goh hamd gulshanidin gul uzub, goh na't naxlistonidin samarchin bo'lur erdik. Va ba'zi vaqt ishq tavsifi va husn tarifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho'x g'azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muhammas bog'lar erdik" [7.60.b.]. Shu kabi manbalarning guvohlik berishicha, aynan shu davrdagi muvashshahlarda ayollar ismini ham uchratamiz Muqumiyni, "Adolxon", Xaziniyni "Oyshaxon" kabi ayollar nomiga bitilgan muvashshahlari mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Орзибеков Р. Ўзбек лирик шеърини жанри. – Тошкент: Фан, 2006.
2. Қайумов П. Тазкирани Қайумий. III жилд. – Тошкент, 2005.
3. Хусаний А. Бадойиу санойи /Фурс тилидан А.Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
4. Фурқат ва Муқимий ҳақидаги мақолалар /Тўпловчи Ғ.Каримов. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1958.
5. Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1975.
6. Муҳиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. – Тошкент: Ҳожи Абдуарруф нашри, 1911/м (ЎзФА Шарқшунослик институти тошбосма асарлар фондидан №3220 инвентар рақам билан сақланмоқда), 360 саҳифа.
7. Юсупов Ш. Худойрхон ва Фурқат. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 95 б.

8. Девони Қорий. Инв. 5512/327. Самарқанддаги Ўзбекистон маданияти тарихи давлат музейи фонди.